

## SHAXSNING KAMOLOTGA YETISHIDA PEDAGOGIK VA DINIY BILIMLARNING O`RNI

**Raximova Roxat Boysoatovna**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi o'qituvchisi*

*Tibbiy biologiya fakulteti 2-kurs talabalari*

**Qodirov Mirhosil Botir o'g'li**

**Ismoilov Muhammadali Ikromjon o'g'li**

**Annotatsiya:** *Shaxs kamolotga yetar ekan u ham diniy ham dunyoviy ilmlar bilan yillar mobaynida qurollanib boradi. Shunday ekan shaxs rivojlanish jarayonida diniy ilmlarning ham roli nihoyatda katta. Ushbu maqolada shaxs voyaga yetishida diniy bilimlar nechog'lik ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar;** *shaxs, rivojlanish, taraqqiyot, diniy bilimlar, kamolot, taraqqiyot, bosqich, tajriba*

**Аннотация:** *По мере взросления человек с годами вооружается как религиозными, так и светскими знаниями. Поэтому роль религиозных наук чрезвычайно важна в процессе развития личности. В этой статье говорится о том, насколько важны религиозные знания для взросления человека.*

**Ключевые слова;** *личность, развитие, прогресс, религиозное знание, зрелость, развитие, этап, опыт*

**Annotation:** *As a person grows older, he is armed with both religious and secular knowledge over the years. Therefore, the role of religious sciences is extremely important in the process of personality development. This article talks about how important religious knowledge is for a person to grow up.*

**Key words;** *personality, development, progress, religious knowledge, maturity, development, stage, experience*

Shaxs rivojlanishi haqida gapirar ekanmiz dastlab uning boshlanishi oila ekanligini unutmasligimiz kerak. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, muayyan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilishi kerak. Shaxs – muayyan jamiyatning a'zosi bo'lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Shaxsning rivojlanishida oilaviy muhit va diniy va dunyoviy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev “Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada hallollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi”- deb ta'kidlaganlar.

Bola bu shaxs bo'lib shakllanayotgan yosh niho kabidir. Uning mukammal yetuk inson bo'lib yetishishida jamiyatning oilaning ayniqsa ota-onaning o'rne kattadir.

Binobarin, farzandning dunyo haqidagi ilk tasavvurlarini uni bu yorug' dunyoga keltirgan ota-onasidagina ko'radi, o'rganadi va bila boshlaydi. Shu sababli hukumatimiz tomonidan oilalarda sog'lom ijtimoiy muhitni ta'minlash uchun juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlar mustaqilikka erishgan kunimizdan boshlangan va hozirgi vaqtda ham davom etmoqda. Ota-ona bu jamiyatning muhim ishtirokchisi hisoblanadi. Ular bola shaxsini tarbiyalashda muhim vazifani bajaradi. Tarbiya jarayoni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda diniy bilimlar bilan yo'g'rilgan bo'lsa, tarbiya jarayoni mukammal bo'ladi. Islomda tarbiya masalalari keng va qat'iy tarzda o'rganilgan. Ulug'lardan biri: "Har bir millatning saodati davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir" degan. Bu o'rinda, marhum muftiy hazratlari Usmonxon Alimovning islom dinining muqaddas manbaalari bo'lmish, Qur'oni Karim va Hadisi Sharifga shuningdek, islomiy axloqning nazariyasi va amaliyotiga suyanib yozilgan "Oilada farzand tarbiyasi" nomli asarining islomda oila va oilaviy munosabatlarga bag'ishlanganligini alohida ko'rsatib o'tish zarur. Bu bevosita, oilada o'smir yoshidagi yoshlarda sog'lom diniy ongni shakllantirishda muhim dasturul amal vazifasini o'taydi. Oila muhiti bola shaxsining shakllanishi va kamol topishida tabiiy shart-sharoit yaratadi. Oila nafosat, go'zallik, turmush va tarbiyaning boshlang'ich maktabi hisoblanadi. Shuning uchun oilada ota-ona va boshqa a'zolarning yagona birligi bolaning estetik rivojlanishiga kuchli ta'sir etuvchi go'zallik tushunchasining asosini tashkil etadi. Oila turli xil estetik kechinmalarning asosi bo'lib, bu har bir insonning tabiatan ta'sirlanishiga imkoniyat beradi. Ota-onaning bola tarbiyasidagi mas'uliyati va farzandning ota-ona oldidagi burchlari ham o'zbek millatida oliy qadriyat hisoblanadi. Bu kabi masalalarga bizning ma'naviyatimiz xazinalari bo'lmish "Qur'oni Karim", "Hadislar", ajdodlarimiz merosi bo'lmish "Qobusnoma", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy" Alisher Navoiyning "Hayratul Abror", "Farhod va Shirin", "Mahbub- ul qulub", Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va boshqa bir qator didaktik asarlarda katta e'tibor berilgan. Bunday asarlar yoshlarda oilaga e'tiqod va mas'uliyatni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek pedagogik faoliyatda ham ushbu asarlardan samarali foydalaniladi.

Payg'ambarimiz Nabbiy sollallohu alayhi vasallam Xiro g'orida ibodatda bo'lganlarida Jabroil alayhissalom ilk vahiy keltirganlarida "O'qi!" deb ilk farmoni oliyni keltirganlar. U paytda qog'oz bo'lmagan bo'lsa, o'qishni ham bilmaganlar. "O'qi!" deganda nimani tushunishimiz kerak? Qur'oni Karimning birinchi oyatida eng ulkan mo'jiza, ma'naviy mo'jiza o'z aksini topgandir. Bu so'z «Iqro'» – «O'qi!» so'zidir. Ha, mana shu surai karima Qur'oni Karimning eng avval nozil bo'lgan surasidir. Muhammad alayhissalom Xiro g'orida o'zlaricha ibodat qilib o'tirganlarida, kunlardan bir kun Jabroil alayhissalom shu suraning avvalgi besh oyatini keltirganlar, qolgan oyatlarni esa keyinroq olib kelganlar. Eng muhimi, birinchi so'z «Iqro'» – «O'qi»dan iborat bu xitob o'qish-yozishni bilmaydigan, xalqdan chiqqan, savodni o'rganmagan zotga bo'lganidir. Mazkur xitob o'qishga va ilmga da'vatdir hamda Islom o'zining birinchi lahzalaridan boshlab ilm tarqatish, jaholatni yo'qotish uchun kelganidan nishonadir muqaddas dinimizga ko'ra ilm olishlik har bir muslim va muslima uchun farz amallarda ekanligi aytib o'tilgan.

Muqaddas Quronu Karim oyatlari Temuriylar davlatining masjid va maqbaralari, jumladan Ulug'bek madrasasi peshtoqiga ham o'yib yozib qo'yilgan. Sharq me'morchiligining ajoyib namunasi sanalgan ikki qavatli bu dargohda tolibi ilmlar diniy va dunyoviy ilmlardan saboq olishgan. Madrasaning o'z kutubxonasi ham bo'lgan. Bular haqida uzoq to'xtalish mumkin, albatta. Qizig'i, madrasa darvozasi tabaqida (ayrim manbalarda madrasa peshtoqida deyilgan) Mirzo Ulug'bek "Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir" degan hadisni yozdirgan.

– Birgina mana shu kitobani o'qiboq buyuk ajdodimizning aqlu zakovatiga tahsin aytmay ilojimiz yo'q. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ota-bobolarimiz 600 yil muqaddam ham ilmu ma'rifatga najot yo'li sifatida qarashgan. Buyuk dunyoviy ilmlar yuksalgan davlatda diniy ilmlarning o'z o'rni bor ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ilm so'zi Quroni Karimda 765 marotaba takrorlanadi. Alloh o'z kalomida marhamat qiladi "Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni baland daraja va martabalarga ko'tarur deyilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bitta shaxsning rivojlanib kamolotga yetishida ota – ona birlamchi o'rinda turadi. Farzandni qanday o'stirib shakllantirsa bola o'sha yo'ldan ketadi. Shaxs bo'lib rivojlanish bosqichida ham diniy ham dunyoviy ilmlar og'ushida o'sgan farzandgina yetuk inson bo'la oladi. Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: Munosib inson bo'lish uchun insonda ikki xil imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir..." deydi. Abu Ali ibn Sino oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: "Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ng uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi" degan fikrni ilgari suradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boysoatovna, R. R. (2022). KASB TANLASH MOTIVATSIYASI NAMOYON BO'LISHIDA PSIXOLOGIK OMILLAR. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 1(11), 65-69

2. Boysoatovna, R. R., & Muxayyo, A. (2023). TIBBIYOT XODIMLARI O'RTASIDAGI IJOBIY MUHITNI YARATISHGA QARATILGAN PSIXOLOGIK TAVSIYALAR. Scientific Impulse, 1(6), 424-429.

3. Boysoatovna, R. R. (2023). ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDOSHUVNING O'ZIGA HOS JIHATLARI. Scientific Impulse, 1(6), 419-423

4. Boysoatovna, R. R. (2023). TALIM DARAJASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 490-496.

5. Boysoatovna, R. R. (2022). O'RTA ASR SHARQ OLAMI YETUK MUTAFFAKKIRI ABU NASR FAROBIY ASARLARIDAGI PEDAGOGIK–PSIXOLOGIK QARASHLAR. Scientific Impulse, 1(4), 737-739.
6. Rohat, R. (2021, February). THEORETICAL OVERVIEW OF THE PERSONALITY OF THE LEADER. In Archive of Conferences (pp. 42-44).
7. Zarnigor, N. (2022). TIBBIY PSIXODIAGNOSTIKADA KOGNITIV FUNKSIYALAR DIAGNOSTIKASI MUAMMOSI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(3), 43-46.
8. Rahmatjonqizi, N. (2023). PSIXOLOGIKYETUKLIKNINGIJTIMOIY-PSIXOLOGIKOMILLARI. Scientific Impulse, 1(6), 436-438.
9. Назарова, З. (2023). ПСИХОСОМАТИК КАСАЛЛИКЛАРДА ПСИХОКОРРЕКЦИЯ ВА ПСИХОПРОФИЛАКТИКА УСУЛЛАРИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 268-272
10. Rahmatjonqizi, N. (2023). KASALLIKKAMUNOSABATTIPLARIVAULARNINGTAHLILI. Scientific Impulse, 1(6), 439-443.
11. Zarnigor, N. (2022). RAHBAR PSIXOLOGIYASI VA UNING MEHNATIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(24), 121-125.
13. Boysoatovna, R. R. (2023). THE EFFECT OF TRUST BETWEEN THE DOCTOR AND THE PATIENT ON THE EFFECTIVENESS OF TREATMENT. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 482-485.